BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY MAHORATINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Faxriddin Shodiyev
Samarqand davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi v.b.professor
Fayziyeva Dilfuza
Samarqand davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti
E-mail: fdilfuza331@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatlarida nimalarga e’tibor berishlari, qanday muammolarga duch kelishlari haqida, tavsiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, axborot texnologiyalari, kompetensiya, uslub, vosita

Аннотация. В данной статье рассматривается, на что следует обратить внимание будущим учителям начальных классов в своей профессиональной деятельности, с какими проблемами они могут столкнуться, а также даются рекомендации.

Ключевые слова: Инновация, информационные технологии, компетентность, метод, инструмент

Abstract. This article discusses what future primary school teachers should pay attention to in their professional activities, what problems they may encounter, and provides recommendations.

Keywords: Innovation, information technology, competence, method, tool

Kirish

Bilamizki, bilim, salohiyatli yoshlar, mutaxassislar barcha yurt uchun kerakligidir. Buning uchun esa qisqa muddatda erishiladigan natijalar emas, yillar davomida olinadigan bilim, harakat natijasini muvaffaqiyati sezilarli bo‘ladi. Bugunig kunda ta’limga e’tibor kuchaygan zamonda, imkoniyatlar ham turlicha, shunga yarasha talablar, xoxishlar ham ko‘p. Ya’niy bilimli yoshlar uchun bilimli, tajribali o‘qituvchilar kerak. Bilim olishni kichiklikdan boshlash ahamiyatli bo‘lganidek, boshlang‘ich ta’lim tizimi o‘z o‘rniga ega. Boshlang‘ich ta’limida ham yildan yilga yangiliklar o‘zgarishlar bo‘lyapti. Darsliklarni yangilanishi, kiritilgan o‘zgarishlar va ularni olib borish qanday ta’lim usulini talab etadi, o‘qituvchi qanday tajriba, bilim, metodikasiga ega bo‘lishi kerak? Bu bilan boshlang‘ich ta’limda pedagogik faoliyati olib borayotgan pedagoglar bilimli deyilmaydi, ya’ni ular ham o‘rganilgan tizimda ta’lim olishgan. Ular bugungi kundagi ta’lim tizimiga qay holatda javobgar va ma’suliyat, nimalarga ega bo‘lishlari kerak? Bu kabi savollarga javob berish orqali bir necha muammolarga duch kelinadi. Bu muammolar ishlash orqali yangi bilimlarga yo‘l ochiladi.

ISSN 3030-3907

Yurtimizda ham kasbiy ta’lim, uni rivojlanishi uchun qaror, o‘zgarishlar kiritilmoqda.

Kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti— A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Pedagogik mahorat markazlari, malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlari, pedagog kadrlar tayyorlanadigan oliy ta’lim muassasalari[1]

O‘qituvchining innovatsiyasi haqida gapirishdan oldin, innovatsiya so‘ziga ta’rif bersak.

«Innovatsiya» so‘zi inglizchadan kelib chiqqan, uning taijimasi yangilanish, o‘zgartirish, yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi.[3.67]

Bugungi kunda barcha muallimlarni salohiyatli bo‘lishi, davr talabi bo‘lmoqda. Ta’limning rivoji uchun, sifatli darslar uchun o‘qituvchining salohiyatli bo‘lishi, kasbini kerakli darajada bilishi birlamchi talab bo‘ladi.

Kompetensiya shaxsning biror bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.

Kasbiy kompetensiya-mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatini oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalalarni amaliy faoliyatda yuqori darajada qo‘llay olinishi [2.28]

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari kasbiy mahoratlarini qanday oshirishlari kerak va bu jarayon qanday muammolarga duch keladilar ? Ozgina bo‘lsa ham, yoritishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili

Har bir kasbning rivojlanish bosqichlari mavjud bo‘lib, olimlar tomonidan izlanishlar, bilimlar, takliflar natijasida yanada o‘sib boradi.

Rus olimasi N.V.Kuzmina o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o‘rni va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U o‘z 144 tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni: gnostik (bilishga oid), proektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik tasnif beradi.[6.143-144]

Ko‘plab olimlar refleksiyaning (Refleksiya so‘zi (lot.«reflexsio»-orqaga qaytish)-«har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shakli hisoblanadi.) I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

ISSN 3030-3907

2. Shaxsiy refleksiya: O‘qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta’minlaydi.

3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida sheriklarining o‘zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta’minlaydi.

4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a’zolarining birgalikdagi o‘zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat.[5.6]

Bunda ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchining e’tiborga molik, o‘rganib tadbiq qilinadigan jihatlari bo‘lishi.

O‘zbekistonlik olimlardan N.Saidahmedov, B.Farberman, N.Azizxo‘jayeva, Sh.Shodmonov, G.Baubekova, G.Xalikova va boshqalar pedagogik yangilanishlarga ilg‘or tajribaning xususiy shakli tarzida qaraydi. Ularni radikal yangiliklar bilan tenglashtirib, quyidagilar bilan bog‘lab tushuntiradi: dolzarb muammoning yangi yechimi, ulardan foydalanish yangi sifat o‘zgarishlariga olib keladi, ularni qo‘llash tizimdagi boshqa komponentlarni ham sifat jihatidan o‘zgartiradi. Bunda yangilanishlar tizimining bir sifatli holatdan ikkinchi holatga o‘tishi tarzida tushuniladi[6.179]

Dj.Bellersning (1634-1725) “Ishlab chiqarish hamkorligini tashkil etish bo‘yicha taklif traktad (1695) kasbiy ta’lim haqidagi loyihalaning birinchisi bo‘ldi. u kasbni egallash, yaxshi tarbiya va atroflicha ta’lim olish yo‘li bilan kambag‘allikdan qutulishning ijtimoiy-iqtisodiy inasalasini yechishni taklif etdi. U o‘qitishni ishlab chiqarish bilan birlashtirishni taklif etdi, keyinchalik bu taklif BMT tomonidan qabul etildi.

Germaniyalik Getorg Kershenshteyner (1854-1932) - kasbiy ta’lim reformatori, uning atoqli tashkilotchisi bo‘ldi. Kasbiy faoliyatga tayyorlashni u xalq maktabimng muhim vazifasi deb hisobladi [7.8-10]

Tadqiqot usuli va metadologiya

Kasbiy mahoratni oshirishda faqatgina qo‘limizdagi kitoblar yetarli bo‘lmay, amaliyot usullarini ko‘rish tadbiq etish kerak bo‘ladi. Chunki yangilik kiritish faqatgina jarayonni tashkil qilish va qo‘llashgina emas, buning uchun sharoitdan kelib chiqib tashkil etish, yo‘l ochish va natijaga ham ega bo‘lish ham ahamiyatlidir.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish va professional tayyorlash bosqichlari texnologik jadvali

Vazifalari	Pedagogik munosabat va pedagogic faoliyatning umumiy texnologiyasini takomillashtirish, innovatsion faoliyat texnologiyasini o‘zlashtirish
Mazmuni	Mualliflik dasturlarini tuzatish metodikasini o‘zlashtirish. Tajriba bosqichlarini rejalashtirish, tatbiq

ISSN 3030-3907

	etiladigan yangilikni tahlil, prognoz qilish, rivojlantirish; yangilikni pedagogik jarayonga tatbiq etish, tuzatish, tajriba ishlari natijalarini kuzatish
Texnologiyalari	Tashkiliy-faoliyat o‘yinlari. Refleks-innovatsion amaliyot mualliflik kontsepsiyalarini o‘rganish. Mualliflik dasturlarini tuzish. Innovatsion turdagi o‘quv yurtlarida amaliy ishlar, turli xil malaka oshirishda ishtirok etish. Pedagogik ustaxonalar.
Daraja	Psixologik tayyorgarlik metodolik tus oladi, refleksiv-analitik mahorat yuqori mas’uliyat, ijodiy faoliyat rivojlanadi

Berilgan ketma-ketlik shunday xulosaga kelinadi, natijaga erishish uchun kerakli ishlarni qilish va unga oid yo‘lni ham bosib o‘tish kerak. Ba’zan kasbiy faoliayt boshlashdan oldin tayyorgarlik ko‘riladi, institute, ish boshlash … ammo asosiysi, o‘z ustimizda kechadi. Bilimli bo‘lish, tajriba ortirish va bularni to‘g‘ri holatda bo‘lsa, ya’niy tartibsiz, har qanday usul, bilimni qo‘llash va o‘rganish yaramaydi. Shu bilan birga bilim, tajriba orttirish kerak paytda ham diqqatsiz bo‘lish ham kerak emas. To‘g‘ri muvozanatda turish oson emas. Shunchaki xatolar ustida ishlash, kerakli yerda qayta takrorlamaslik, imkoniyat kelsa foydalanish keraklidir.

O‘qitish usuli deganda-ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. Maktab ta’lim tizimida o‘qitish bilan bir qatorda “uslub” va “vosita” terminlari ham ishlatiladi.

Uslub- ma’lum o‘quv materiallarini o‘tishda qo‘llanilayotgan asosiy o‘qitish usuli bilan birga ikkinchi bor o‘qitish usulining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko‘riladi.

Vosita-ma’lum o‘qitish usulini mavaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallari, asbob, qurol apparatlardan foydlanishdir. [2.36]

O‘qituvchi kasbiy faoliyatni tajriba orttirarkan, ko‘nikma, malaka orqali o‘z usuli va vositalarini aniqlaydi va faoliyat olib boradi. Innovatsiya kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari, turli multimedia vositalarida foydalanish ham kerak bo‘ladi.

Axborot texnologiyalarining o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ahamiyatli jihatlari quyidagilar:

✓ o‘quvchining diqqatini jamlash;

✓ ma’lumot to‘g‘risidagi tasavvurni kengaytirish;

✓ izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishish;

ISSN 3030-3907

✓ o‘z-o‘zini baholash.[4]

Bu jarayonda kerakli metodni qo‘llash osonlashadi. Ya’nikim barchaning diqqatini bir yerga jamlash samarali bo‘lishga yordam beradi. Yoki mavzuni bayon qilishing uchun kerakli ma’lumot taqdim etish uchun videodarsliklardan foydalanish mumkin. Bular o‘qituvchiga qanday qulaylik va muammolar olib keladi va bu boyicha tavsiya olinadi.

Har bir o‘qituvchi faoliyat olib borayotgan hududda internetdan foydalanish qulay bo‘lmasligi kerakli maqsadga yetish qiyinchlik tug‘dirish mumkin;

O‘quvchilarni jamlash, ya’niy ular tayyor bo‘lmasliklari mumkin, yaxshi natija uchun keltirmasligi mumkin;

Dars jarayonida vaqt kamligi, kerakli natijani olmaslik ;

Yoki tezroq natijani o‘ylab, qayta bir usulga yuzlanmaslik;

Kasbiy mahoratni oshirish faqatgina zamonaviy vositalarga tayanib qolish;

Kasbiy mahorat faqatgina dars bilan bog‘liq emas, o‘quvchilarning psixologiyasini tushunish, ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishda ham mahoratli bo‘lishdir. Ammo har doim ham tayyorgarlik ko‘rish bilan muvaffaqiyatli bo‘la olmasakda, ishni chiroyli, talab darajasida olib borish ahamiyat kasb etadi. Chunki dars jarayonlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi har xil bo‘lganligi bois mavzu, vazifalar qabul qilish jarayonida qoniqarli bo‘lmasligi mumkin. Shu boisdan, ularni tushungan holda o‘qishga, bilim olishga imkoniyatlarni, undashni boshqa yo‘ldan olib borishni ham bilish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa, ularni kuzatish turli usullarni qo‘llab ko‘rish kerak bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari e’tiborga olishlari kerakki, barchasiga birdaniga erishish imkonsiz. Sekin astalik bilan, yillar davomida o‘rganilgan bilimlarni boyitgan holda olib borishlari kerak bo‘ladi. Innovatsiya qilishlik samarali ham bo‘lishi kerak, shu bilan birga bir natija bilan to‘xtab qolmaslik, cho‘chimaslik kerak.

Tavsiyalar

Har bir o‘qituvchi mahoratli bo‘lishga jazm qilar ekan, o‘zini har tomonlama rivojlantirishga harakat qilishi, kamchiliklar ustida ishlashi kerak. Zero faoliyat olib borish turli tajriba orttirishga taqozo etadi. Kasbiy mahoratni oshirishda psixologik, tajriba kamligi, yangi bilim kabi muammolarga duch kelinadi. Chunki bilimli bo‘lgan o‘qituvchi, uni chiroyli, tushunarli tarzda taqdim eta olish talab qilinadi, har bor o‘quvchi bir shaxs bo‘lganligi bois, ruhiyati turlicha bo‘ladi ular bilan ham ishlash olishi, jamoaga moslishi kerak. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish davomida, kasbiy mahoratlarining ilk kezlari his qilib ko‘radilar, ya’nikim metodika, turli topshiriqlar vazifa o‘taydilar. Bu jarayonlar ham mahoratni oshirish, pedagogik ko‘nikmaga ega bo‘lishga zamin yaratdi.

ISSN 3030-3907

Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi - o‘qituvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Zamonaviy mutaxassisning o‘z bilimi va hayotiy tajribalarini oshirib borishi unda shaxsiy xislatlarning shakllanganlik darajasiga bog‘liq.[8]

Bundan tushuniladiki, ilk o‘rinda kasbiy ko‘nikmalarni oliy o‘quv davri mobaynida faollikni oshirish, izlanishda bo‘lish, berilgan topshiriqlarni faqatgina vazifa emas, kerakli foydani ko‘zlamoq kerak. Ammo bilim olish, rivojlanish uchun kech emas albatta. Yana kerakli, muhim jihatlarni e’tiborimizni qaratsak:

-Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda reja tuzish (nimani o‘rganish kerak, qanday taqdim qilish, qayerda boshlash kabi savollar tayangan holda) va amalga oshirish harakat qilish;

-Psixologiya, muloqot, munosabatlarga oid kitoblar o‘qish, insonlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

-Tajriba ortirishda ustozlar, kasbdoshlar bioan ko‘proq suhbatda bo‘lish, faoliyat yo‘llariga nazar solish;

- Pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lish, fikrni bayon qilish, dars jarayonidagi til me’yorlariga rioya qilish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatiga diqqatli bo‘lish;

- Malaka oshirish kabi muassasalarda ta’limni yo‘lga qo‘yish, bilim orttirish.

Xulosa

Keltirilgan tavsiyalar, yuqorida qo‘yilgan muammolar har bir ustozda bo‘ladi deyolmaymiz. Chunki har bir inson xatolar ustida bo‘lgani bilan, iste’dodli pedagoglar ham oz emas, ya’nikim har bir pedagog o‘zidan kelib chiqib, muammoni bilishi, unga yechib izlamog‘i kerak. Tajribali insonlardan ko‘mak olish, maslahat so‘rash ziyon qilmaydi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kasbiy mahoratni oshirish har bir mutaxassis uchun kerak. Xatolar ustida ishlash lozim, muammoni o‘zi ham imkoniyatga, bilimga yo‘l ochish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.12.2024 yildagi 867-son

2. BOshlang‘ich ta’lim pedagogikasi [Matn]: darslik/ A.J.Atajonova va boshqalar –Toshknet:Bookmany print,2024.-274-b

3. D.M.jamoliddinova, S.S.Meliboyeva. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya:Draslik.T: “Toshkent”-144 b

4. O‘zMU xabarlari Вестник НУУз FALSAFA 1/2 2022 O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/2] ISSN 2181-7324

5. N.R.Karimova. Boshlang`ich ta`lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi–2020.

ISSN 3030-3907

6. Kasbiy ta’lim metodikasi / Sh.Shoyimova, Sh.Mirzayeva, U.Qarshiboyeva. – Òoshkent: «TURON-IQBOL», 2020
7. Daminov O.O. Kasbiy pedagogika. - T.: “Adabiyot uchquni 2018, 256 bet.
8. Rashidova O.X., Omonov Z.X, “Mustaqil. ta’lim – zamonaviy o‘qitish texnalogiyasining muhim komponenti sifatida”, “ Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi, 2024-yil, Volume2, issue5, 152-155-b

ISSN 3030-3907